

NORDIC LIFE | 2023



5 SON
Oktabr
Noyabr • Dekabr

NORDIK HAYOTI NORDIC LIFE



NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sh.Mustafakulov tahriri ostida

Nashrga tayyorlaganlar:
M.Isaqova, R.Shodmonov

Xalqaro Nordik universiteti media markazida tayyorlangan “Nordic life”ning 5-faslida oliygohning 2023-yil oktyabr, noyabr va dekabr oylaridagi faoliyati aks ettirilgan.

Ushbu sonda XNUNing diplomatik hamkorlik aloqalari, joylardagi targ‘ibotlar, ilmiy yutuqlar hamda talabalarning akademik va noakademik hayoti bilan tanishishingiz mumkin.



INTILGANGA TOLE YOR!

WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!



KIRISH

“Nordic life”ning navbatdagi faslini e’tiboringizga havola qilayotganimizdan mamnunmiz. Universitetning oktyabr - dekabr oylaridagi faoliyatiga nazar tashlasak, talabalar uchun yangi binoda ilm olish va mustaqil ta’lim uchun yanada keng imkoniyatlar yaratildi. Tanishuv haftaligi qizg’in boshlanib, 2023-yil yakuniga qadar talabalar uchun dars jarayonlari sifatli tashkillandi. Bundan tashqari talabalarning ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, badiiy salohiyati va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi. Ushbu broshyuramizda sizlarni bu xususda kengroq tanishtiramiz.

O’tgan davr ichida universitetda magistrlar bilimlarini tizimlashtirish va ilmiy statusni ko’tarish, doktorant va mustaqil izlanuvchilar ilmiy faoliyatining samaradorligini oshirish yo’lida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Xalqaro Nordik universiteti delegatsiyasi Amerika Qo’shma Shtatlarida ta’lim safarida bo’lishi va xorijiy nufuzli universitetlar tajribalarini keng o’rganishi ham muhim ahamiyatli voqeliklar sirasidan bo’ldi. XNUni xalqaro muloqot platformasiga aylantirish borasida xalqaro hamkorlikning keyingi qadamlari qo’yildi.

Quvonarlisi, Xalqaro Nordik universiteti **"Yilning eng yaxshi ilmiy muassasasi"** nomini olishga muvaffaq bo’ldi.

Sherzod Mustafakulov

*Xalqaro Nordik universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

MUNDARIJA

Kirish	3
Talabalar yangi o'quv yilini yangi binoda boshladilar	4
Finlandiya kuni qaynoq lavhalarda!	4
"Orientation week" yorqin lahzalarga boy o'tdi	5
Magistratura talabalari ilm olishga kirishdilar	5
XNUga Finlandiyaning taniqli diplomatlari tashrif buyurishdi	6
Professional buxgalteriya kursiga start berildi!	6
"Qadring baland bo'lsin, Ona tilim!"	7
Siz suratlarda ko'rib turgan o'yin 13 ta jamoa, 80 nafarga yaqin zehqli talaba-yoshlarni o'zida jamladi	7
"XNU va O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rahbariyatlari o'rtasida muzokara o'tkazildi	8
Finlandiyalik ustozimiz Johanna: "Bu yerda hammasi ajoyib, biz hayotdan zavq olaypmiz!	8
Milliy qadriyatlarimizga uyg'un kun bo'ldi!	9
Universitet kengashining 2-yig'ilishi o'tkazildi	9
"O'zbekiston-2030": 5 ta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsadli istiqbol	10
Respublikamizdagi eng yirik o'qituvchilar malakasini oshirish instituti bilan memorandum imzolandi	11
Rektor kubogi	11
Trenerlar uchun trening start oldi	12
Ma'naviyat marafoni	12
Sportchi-o'yinchilar kashf etildi	13
Doktorantura, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar uchun imtihon bo'lib o'tdi	13
Student Party	14
XNUda xalqaro konferensiya o'tkazildi	14
XNUda xalqaro konferensiya o'tkazildi (davomi)	16
Xalqaro Nordik universiteti delegatsiyasi Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim safarida bo'ldi	17
Rovan Universiteti tajribalari keng o'rganildi	18
XNU vakili – Xitoyda	19
XNU xalqaro muloqot platformasiga aylanadi	19

MUNDARIJA

XNU delegatsiyasi Rovani universiteti muzeyida bo'ldi	20
XNU delegatsiyasi Amerikaning Nyu-York shahrida joylashgan BMT bosh qarorgohida bo'ldilar	20
Finlandiyalik hamkor ish beruvchilar – XNUda	21
XNUda "Dolzarb - 40 kunlik" profilaktik tadbirlar doirasida davra suhbatlari o'tkazildi	21
XNUda "Zo'ravonlikka qarshi 16 kun" aksiyasi doirasida davra suhbatlari o'tkazildi	22
Konstitutsiyamiz 31 yoshda!	22
XNUda birinchi xalqaro "Matematiklar forumi" o'tkazildi	23
Nufuzli fin universiteti rektori - Foundation tinglovchilari huzurida	25
Xalqaro hamkorlikning keyingi qadamlari	25
XNUda "Coffee time"	25
Eng yirik kutubxonaga tashrif uyushtirildi	26
XNU mustaqil izlanuvchilarining ilmiy faoliyati monitoring qilindi	26
XNUGa Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasi Diplomatik munosabatlar departamenti boshlig'i Alexander Scharer tashrif buyurdi	27
AQSh elchixonasining Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi tarkibidagi AMERIKA MARKAZIga tashrif uyushtirildi	27
"Nurli maskan"da bayram kechasi tashkillandi	27
AQShning Toshkentdagi elchixonasida muhim uchrashuv o'tkazildi	28
Talabalarimizning ilk hisobot-konsert dasturi yuqori saviyada o'tdi	29
Xalqaro Nordik universiteti - Yilning eng yaxshi ilmiy muassasasi!	29
XNUda seminar-trening haftaligi o'tkazildi	30
Innovatsion pedagogik yondashuvlar borasida master-klass o'tkazildi	30
Ijro va mehnat intizomi - ustuvor jihat	31
Yangi O'zbekistonni korrupsiyadan holi mamlakatga aylantirishda - birlashaylik!	31
XNUda tayyorlangan monografiya xorijiy tillarda nashr etilmoqda	32
Universitet kengashining 4-son yig'ilishi o'tkazildi	33
XNUda Milliy kutubxona imkoniyatlaridan keng foydalaniladi	33
XNU olimlarining maqolasi nashr etildi	34
XNU olimlari - taniqli olimlar ensiklopediyasiga kiritildi	34

Talabalar yangi o'quv yilini yangi binoda boshladilar! |3-okt.|

3-oktyabr kuni Xalqaro Nordik universitetining yangi 2-o'quv binosi tantanali ochildi. Talabalar yangi o'quv yilini yangi binoda boshladilar.

Tantanali tadbirda oliygoh rahbariyati, professor-o'qituvchilar, talabalar va ularning ota-onalari ishtirok etdilar.

Universitet rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov talabalikka qadam qo'yg'an yoshlarni ilk muvaffaqiyatlari bilan samimiy taabrikladi. Xalqaro Nordik universiteti faoliyati, ilm-fan rivojiga qo'shayotgan hissasi bilan tanishtirib o'tdi. Ularga ilm olish, talabalik fursatlaridan unumli foydalanish borasida tavsiyalar berdi.

Musiq'a sadolari ostida ramziy lenta kesilib, yangi o'quv bino tantanali ochildi.

1-kursga qabul qilingan kunduzgi ta'lim talabalari uchun "Orientation week" o'quv-tanishtiruv haftaligi start oldi.



Finlandiya kuni qaynoq lavhalarda! |4-okt.|

"Orientation week" - yangi o'quv binomizda - yanada qulay manzilda o'tdi!

- Yevropa mamlakatlariga sayohat taassurotlari;
- kahoot qiziqarli sinov-test o'yinlari va sovg'alar;
- yangi ta'lim maqsadlari treningi!

Siz ham Xalqaro Nordik universiteti bilan o'z maqsadlaringizni amalga oshirish!

"Orientation week" yorqin lahzalarga boy o'tdi! |5-7-okt.|



- Talabadan maxsus bilim va g'oyalar egasiga aylanish;
- ijrochidan rivojlantiruvchi, funksional ishchidan yaratuvchiga aylanish;
- bilimdan ham kuchli networkingga bag'ishlangan trening;
- va albatta "Pizza party", tabiat bag'rida musiqiy tanaffus!

Ular Xalqaro Nordik universitetini tanladilar - Siz ham shoshiling!



Magistratura talabalari ilm olishga kirishdilar |11-okt.|

Magistrlar - bo'ljak olimlar uchun qanday istiqbollar ochiq?

Bilimlarni tizimlashtirish va ilmiy statusni oshirish yo'llari qanday?

Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulov magistratura bosqichida o'qish boshlayotgan talabalarga shular xususida keng ma'lumot berdi.

Uchrashuvda akademik yo'lda integratsiyalashuv, kasbiy o'sish imkoniyatlari va magistrlik mas'uliyati borasida samimiy suhbat qurildi.



XNUga Finlandiyaning taniqli diplomatlari tashrif buyurishdi |11-okt.|

Finlandiyaning YXHTdagi doimiy vakili, elchi janoblari **Vesa Hakken**, YXHT Finlandiya delegatsiyasining harbiy maslahatchisi, kapitan janob **Jakko Jantti**, YXHT Finlandiya delegatsiyasining maxsus maslahatchisi janob **Riku Rantanen** va YXHT raisi o'rinbosari janob **Toni Sandell** universitetimizga tashrif buyurdilar.

Rasmiy delegatsiya vakillari Xalqaro Nordik universiteti talabalari va xodimlari bilan uchrashuv o'tkazdilar. Ular Finlandiyaning turli jihatlarini, ta'lim, atrof-muhit, suv sektori va boshqa dolzarb mavzularga bag'ishlangan taqdimot qildilar.

Uchrashuvda ular Xalqaro Nordik universitetining suv, atrof-muhit, yoshlar tadbirkorligi va biznesni rivojlantirish sohalarida tashabbuslarini har jihatdan qo'llab-quvvatlashlarini ma'lum qildilar.



Professional buxgalteriya kursiga start berildi! |20-okt.|



NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY @tulaevmirzakul

Buxgalteriya hisobi kursini 4 oyda o'rganing!

Professional buxgalteriya kursi XNUda!

Mirzakul Tulayev

Biz bilan bog'laning: **97 751 09 58**

Toshkent, Sebzor ko'chasi, 22A

100 % amaliyotga asoslangan kursda bir vaqtda bir necha korxonaga buxgalteriya hisobini boshqarishni eng qisqa muddatda o'rganing!

Kurs imkoniyatlari:

- buxgalteriya bo'limlarini noldan shakllantirish;
- 1 C dasturini mukammal o'rganish.

Kursni olib boradi:

Iqtisodiyotimizning turli tarmoq va sohalar uchun 4000 dan ortiq salohiyatli buxgalterlar yetishtirib chiqargan Xalqaro Nordik universiteti kafedrasini mudiri, dotsent, **Mirzakul Tulayev**.

"Qadring baland bo'lsin, Ona tilim!" |21-okt.|



Millat ko'zgusi - tilni asrashga chorlov;

- *Tashakkurnoma va taqdirlovlar;*
- *Qizg'in savol-javoblar;*
- *Musiqiy guldastalar;*
- *Bilga xoqonu Qoshg'ariy, Amiriyu jadid bobolarimiz ibratlariga nazar...*

"Qadring baland bo'lsin, Ona tilim!" nomli bayram tadbiri ana shunday o'ziga xos tarzda nishonlandi

Siz suratlarda ko'rib turgan o'yin 13 ta jamoa, 80 nafarga yaqin zehni talaba-yoshlarni o'zida jamladi |23-okt.|

"Zakovat" o'yinida milliy tilimiz tarixiga oid savollar atrofida bahs yuritildi.

Yakunda birinchi va ikkinchi o'rinni olgan jamoalar (Papa Rimskaya va Qalqon) a'zolari birlashtirilib, universitet terma jamoasi tashkil etildi.



"XNU va O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rahbariyatlari o'rtasida muzokara o'tkazildi |25-okt.|

Uchrashuvda kelgusida fan, ta'lim va tadqiqotlarni birlashtirish, ilmiy salohiyat va amaliy tajribalardan foydalanib, samarali muhit yaratishga kelishildi.

Shuningdek, ta'lim jarayoniga Finlandiya tajribalarini keng qo'llash, talabalarga fin tilini o'rgatish bo'yicha **hamkorlik Memorandumi** imzolandi.



Finlandiyalik ustozimiz Johanna: "Bu yerda hammasi ajoyib, biz hayotdan zavq olaymiz!"



21-oktyabrda "O'zbek tili kuni"ni nishonladik...

Bugun oilamiz yigitlari Yuventus futbol klubi mashg'ulotlariga borishdi, yangi "hobbi" topishdi..."

Ma'lumot o'rnida: Johanna Järveläinen universitetimizda 2023-2024-o'quv yilida **FIN tilidan** talabalarimizga saboq bermoqda

Milliy qadriyatlarimizga uyg'un kun bo'ldi! |1-noy.|

Talabalarning akademik soatlardan tashqari bo'sh vaqtlarida madaniy tadbirlar orqali adabiy, tarixiy va milliy tafakkurlarini boyitishga e'tibor qaratilmoqda.

Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida **"Milliy qadriyatlar kuni"** o'tkazilib, talabalar uchun erkin ijodkorlik muhiti yaratildi. Anjumanda ular nazmiy bilimlari, milliy qadriyatlarimizga hurmat-ehtiromlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Talabalar tanlovlarda qatnashib, milliy liboslarda chiqishlar qildilar, she'rlar o'qidilar va qo'shiqlar kuyladilar. Faol ishtirokchilarga kitoblar sovg'a qilindi.



Universitet kengashining 2-yig'ilishi o'tkazildi |1-noy.|

Kengash yig'ilishi **"Talaba-yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini olib borishning amaliy, ta'sirchan mexanizmlarini shakllantirish to'g'risida"**gi dolzarb masala muhokamasi bilan boshlandi. Muhokamalar asosida kelgusida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab olindi.

Kun tartibidagi 2-masala - **"2023/2024-o'quv yili uchun tashkil etilgan qabul kampaniyasi, muvaffaqiyat va kamchiliklar, kelgusida hal etilishi lozim bo'lgan jihatlar to'g'risida"** Qabul komissiyasi mas'ul kotibining hisoboti tinglandi.

Shuningdek, universitetdagi ijtimoiy muhit, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan **"Talaba - ota-ona, professor-o'qituvchi - tyutorlar"** integratsiyasini ta'minlash hamda universitetning xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorligi, natijalar va ustuvor yo'nalishlar bo'yicha mas'ullarning hisobotlari tinglanib, atroflicha muhokama qilindi.

Kengash yig'ilishida **"Universitetning hisob siyosati: amalga oshirilishi lozim bo'lgan jihatlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash to'g'risida"**gi masala ham ko'rib chiqildi, taklif va mulohazalar tinglandi.

Kengashda ko'rilgan barcha masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.



"O'zbekiston-2030": 5 ta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsadli istiqbol |2-noy.|



Xalqaro Nordik universitetida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari ishtirokida **"O'zbekiston -2030" strategiyasini amalga oshirishning iqtisodiy va huquqiy asoslari**" mavzusida davra suhbat tashkil etildi.

Davra suhbatida universitet professor-o'qituvchi va talabalarining mazkur strategiyani hayotga keng tatbiq etish va amalga oshirish bo'yicha ijtimoiy-siyosiy savodxonligini oshirishga e'tibor qaratildi.

Ular o'z so'zlarida Prezidentning 11-sentyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan **"O'zbekiston - 2030"** strategiyasi 5 ta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsaddan iborat ekanligi, eng muhimi ularning barchasi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish jarayonida to'plangan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilganligini e'tirof etib o'tdilar.

Davra suhbatida qo'mita a'zolari **Emma Arslonova, Jahongir Abdurasulov, Leyli Seytova va Javlonbek Ergashev** o'z ma'ruzalari orqali ishtirokchilarga 5 ta ustuvor yo'nalishni keng tahlil qilib berdilar.

Tadbirda strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishishda oldinda turgan vazifalar xususida so'z bordi. Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi raisining o'rinbosari **Durbek Ahmedov** ta'kidlaganidek, "O'zbekiston-2030" strategiyasida, birinchi navbatda Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya hisoblangan ta'limni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilgan.

Davra suhbatida, shuningdek, deputatlar tomonidan talaba-yoshlar fikri va tashabbuslari ham tinglandi va o'rganildi. O'zaro savol-javoblar asosida ularning ijtimoiy-siyosiy savodxonligi va jamiyatimizdagi islohotlarga daxldorlik hissi oshirildi.



Respublikamizdagi eng yirik o'qituvchilar malakasini oshirish instituti bilan memorandum imzolandi |3-noy.|

XNU rahbariyati va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti rektori **Abduvali Ismailov** o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda fan, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni samarali birlashtirish, ilmiy salohiyat va amaliy tajribalardan birgalikda samarali foydalanish borasida muzokara o'tkazildi.



Respublika pedagoglarining kasbiy salohiyatini zamonaviy xalqaro yutuqlardan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida istiqbolli hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi.



Binar ma'ruzalar, qo'shma darslar tashkillash, ta'lim rivojlangan davlatlar, xususan Finlandiya professor-o'qituvchilarini o'quv jarayoniga jalb etish kabi qator masalalarda hamkorlikka kelishildi va Memorandum imzolandi.



Rektor kubogi |6-noy.|

- Qizg'in va murosasiz, shu bilan birga do'stona bahslar;
- o'yinchilar faolligi va olqishlar;
- hayajon, quvonch va albatta natija...

8 ta talabalar jamoasi to'p surgan "Rektor kubogi" sovrini uchun musobaqalar ana shunday ko'tarinki ruhda o'tdi.



Trenerlar uchun trening start oldi |7-noy.|

Xalqaro Nordik universitetida UNICEFning Helsinkida joylashgan (Finlandiya) Ta'lim innovatsiya markazi, Eduten, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida trenerlar tayyorlash treningi o'tkazildi.

Trening ochilishida Finlandiya ta'lim tizimining asosiy tamoyillari, raqamli ta'lim va uning zamonaviy ta'limdagi rolini tushunish kabi qator maqsadlar xususida so'z bordi.

UNICEF ta'lim innovatsiya markazi vakili Inaki Alejandro Sanches Ciarrusta va EduTen bosh direktori Henri Muurimaa spikerligida o'tayotgan treningda zamonaviy Finlandiya ta'limini o'yinlashtirish va sun'iy intellekt bilan birlashtirilgan raqamli matematikani o'rganish platformasi bo'lgan Eduten platformasi xususida keng ma'lumot berildi.

Treningda trenerlarga EduTen platformasining xususiyatlari va afzalliklari borasida amaliy tajribalar yetkazildi.



Ma'naviyat marafoni |11-noy.|

- Aqlni charxlash, sog'lom fikrlash, do'stona bellashish, mazmunli vaqtichog'lik;

- Jismoniy harakat, energiyani oshirish va charchoq hissini bartaraf etish, jamoaviy hamjihatlik, yutuq va taqdirlov...

"Biz bir bo'lsak - yagona xalqimiz, birlashsak - yagona Vatanimiz!" shiori ostidagi **"Ma'naviyat marafoni"** doirasida o'tgan sport musobaqasi ana shunday esda qolarli lahzalarga boy bo'ldi.

Professor-o'qituvchi va xodimlar o'rtasida sport musobaqalari o'tkazildi



Sportchi-o'yinchilar kashf etildi |14-noy.|

Universitet talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish maqsadida sport musobaqalariga jalb etildilar.

Shaxmat-shashka yurishlari va stol tennis musobaqalari qizg'in kechdi.

Shaxmatda taxtdagi o'rin uchun kurashlarda Saidjafar Dusmatov faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Sardor Xudoyberdiyev va Ahror Rasulov esa 2 va 3-o'rinlarni egalladilar.

Shashka bo'yicha **Afzalbek Abdumalikov, Qobiljon Umarov** va **Abdulaziz Isakovlar** g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

Stol tennis bo'yicha esa **1-o'ringa Abduqodir Jo'rayev** savozor bo'ldi. **2-o'ringa Farrux Murodov** va **3-o'ringa Sanjar Berdiyev** savozor bo'ldi.



Doktorantura, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar uchun imtihon bo'lib o'tdi

Doktorantura uchun kirish imtihonlari o'tkazildi



Imtihon Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov raisligidagi komissiya tomonidan o'tkazildi.

Kirish imtihonlari va suhbatlarda talabgorlarning bilim darajasi, muammolarni tahlil etish va yechim taqdim qilish bo'yicha ilmiy salohiyatlari sinovdan o'tkazildi.

Student Party |17-noy|

*Musiqiy quiz, jumanji va boshqa qiziqarli, kutilmagan voqelik va tafsilotlarga boy ko'ngilochar o'yinlar;

*Musiqiy ta'lim yo'nalishining doirachi-talabalar guruhi va o'zbek xalq cholg'ulari ansamblining mahoratli ijrolari;

*Pizza party va albatta kulminatsion nuqta - **King Macarella "DJ"**ligidagi esda qolarli musiqiy dastur...



Universitetimizda talabalar bayrami ana shunday o'ziga xos nishonlanib, barchaga haqiqiy bayramona jo'shqin kayfiyat bag'ishlay oldi!

XNUda xalqaro konferensiya o'tkazildi |22-noy|

Xalqaro Nordik universitetida 22-noyabr kuni **"Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan - ta'lim - ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari"** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Konferensiya **YUNISEFning O'zbekistondagi ta'lim vakillari, O'zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi, Jahon Bankining ta'lim bo'yicha mas'ullari, Finlyandiyaning Karelia amaliy fanlar universiteti rahbariyati, Eduten va 14 ta OTM** hamkorligida o'tkazildi.

Unda nufuzli xalqaro tashkilotlar va ekspert hamjamiyatlarining vakillari, fan va jamoat arboblari, **50 ta** xalqaro va respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining **150 nafarga yaqin** olim va mutaxassislari ishtirok etdilar.

XNU rektori bugungi kunda ta'lim sifati va yetishtirilayotgan kadrlarning har jihatdan raqobatga tayyor bo'lishini ta'minlashda oldinda turgan ustuvor maqsad va vazifalar xususida so'zladi. Mutaxassislar tayyorlashda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining ahamiyatiga keng o'xtaldi.





Xalqaro ilmiy amaliy konferensiyada nufuzli xalqaro tashkilotlar va ekspert hamjamiyatlarining vakillari, fan va jamoat arboblari, 50 ta xalqaro va respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining 150 nafarga yaqin olim va mutaxassislari ishtirok etmoqdalar.

Ilmiy-amaliy konferensiyani Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov kirish so'zi bilan ochdi.

XNU rektori bugungi kunda ta'lim sifati va yetishtirilayotgan kadrlarning har jihatdan raqobatga tayyor bo'lishini ta'minlashda oldinda turgan ustuvor maqsad va vazifalar xususida so'zladi. Mutaxassislar tayyorlashda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining ahamiyatiga keng to'xtaldi.

Victoriya BABAKHODJAYEVA,

Jahon bankingning Yevropa va Osiyo davlatlari bo'yicha ta'limda global amaliyot mutaxassisi:

"Ta'lim va innovatsiyalar, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi bosqichma-bosqich jarayondir.

Bu jarayonlarda bilim va ilm-fan integratsiyasiga asoslangan ta'lim standartlarini shakllantirish, yoshlarni, ilm-fan rivojiga keng jalb etish, fundamental tadqiqotlarni innovatsion ilmiy faoliyatga yo'naltirish va yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha bilim darajasini oshirish muhim vazifalardir."



Petri RAIVO,

Karelia amaliy fanlar universiteti rektori:

"Finlandiyada ta'lim va tadbirkorlikning o'zaro integratsiyasi soha istiqbolida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonida ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, qo'shma ta'lim dasturlari (double degree) yordamida xalqaro iste'dodlarni ham jalb etishga ahamiyat qaratilyapti.

Ta'lim va biznesni kelajakdagi muvaffaqiyatlarni kafolatlaydigan tarzda integratsiyalash yangi bosqichdagi maqsadlarni amalga oshirishning muhim shartlaridan."



Bruno DALLAGO,
Trento (Italiya) universiteti professori:

"Yevropa Ittifoqida universitetlarning ikkita aniq maqsadi bor. Ya'ni, ta'lim va tadqiqot orqali Yevropa Ittifoqi darajasida universitetlar va sanoat o'rtasidagi hamkorlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, milliy oliy ta'lim tizimlarining Yevropa integratsiyasini mustahkamlashga hissa qo'shish va diplomlarni tan olish shular jumlasidan.

Iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy integratsiyaning muvaffaqiyati Evropa Ittifoqi oliy ta'lim tizimlarining uyg'unligi va bir-biriga mos kelishini talab etadi.

Ta'limda samarasizlik va assimetrik manfaatlar ta'siridan saqlanish uchun esa mehnat bozori integratsiyasini qo'llab-quvvatlash zarur."



XNUda xalqaro konferensiya o'tkazildi |22-noy|

Anjumanda, **Finlandiya** ta'lim tizimining ilg'or tajribalari bilan tanishildi. Talabalar almashinuvi tajribasi - o'zbekistonlik talabalarni Finlyandiya o'qishga qanday tayyorlash mumkinligi xususidagi amaliy ishlar haqida so'z bordi.


Ma'ruzachilar tomonidan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida mavjud muammolar tahlil etildi va qator takliflar ilgari surildi.

Xalqaro konferensiya doirasida 3 ta sho'ba dolzarb 6 ta mavzu keng tahlil va tadqiq etildi. Ta'lim sifatini ta'minlashda ilg'or xorijiy metodikalar, inklyuziv ta'limning zarurati, tendensiya va istiqbollar muhokama qilindi.

Konferensiya yakunida sho'ba raislarining hisobotlari tinglandi.

Konferensiyaning yuqori saviyada o'tishiga hissa qo'shgan barcha faollarni taqdirlash tadbiri bo'lib o'tdi.

Konferensiyada ma'ruzalar orqali **fan - ta'lim - ishlab chiqarish** integratsiyasini kuchaytirish borasida keng ma'lumotlar olinib, o'zaro bilim hamda fikr almashildi. Soha faollarining ta'lim rivojini yanada jadallashtirish, dolzarb muammolarni o'rganish va istiqbolli maqsadlarni ilgari surishdagi faoliyatlari o'zaro muvofiqlashdi. XNU ilmiy ahamiyatga ega qimmatli ma'lumotlar almashishda platforma vazifasini o'tadi.



Xalqaro Nordik universiteti delegatsiyasi Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim safarida bo'ldi |24-noy.|

XNU delegatsiyasi **Nyu-Yorkdagi "Mahalla USA"** jamoatchilik markazida vatandoshlarimiz bilan uchrashdilar

Nyu-Yorkdagi o'zbek diasporalarini birlashtirgan **"Mahalla USA"** markazi AQSHda yashab kelayotgan vatandoshlarimizga ko'mak berish, qolaversa, ularning farzandlari - yosh avlodga Ona Vatan tuyg'usini singdirishga xizmat qilmoqda.

XNU delegatsiyasi **Nyu-Yorkdagi "Mahalla USA"** jamoatchilik markazida vatandoshlarimiz bilan uchrashdilar

Nyu-Yorkdagi o'zbek diasporalarini birlashtirgan **"Mahalla USA"** markazi AQSHda yashab kelayotgan vatandoshlarimizga ko'mak berish, qolaversa, ularning farzandlari - yosh avlodga Ona Vatan tuyg'usini singdirishga xizmat qilmoqda.



Markaz qoshida **"Ziyo art"** o'zbek tili o'quv markazi faoliyat olib boryapti. O'zbek san'ati, musiqasi, raqs va she'riyati, rassomchilikni yoshlarimizga o'rgatish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, markaz tashabbusi bilan milliy bayramlarimiz, marosim va tadbirlarimiz keng nishonlanmoqda.

Universitetimiz delegatsiyasi **"Mahalla USA"** markaziga tashrifi chog'ida minnatdorchilik ramzi bo'lgan hosil bayrami, ya'ni 1962-yildan **"Shukronalik bayrami"** nomini olgan qadriyatlar ayyomini xorijdagi yurtdoshlarimiz bilan nishonlashga musharraf bo'ldilar. Bayram tadbiri bolajonlarning o'z ota-onalariga minnatdorchiliklari namoyishiga ham aylanib ketdi.

"Turizm fidoyisi" ko'krak nishoni sohibi, o'zbek diasporasi uchun vatanning bir bo'lagi sifatida xizmat qilayotgan **"Mahalla USA"** markazi *prezidenti Abdumalik Ahmedov* XNU delegatsiyasini markaz faoliyati bilan yaqindan tanishtirdi.

Yoshlarning o'z milliy qadriyatlari va an'alarini doimo yodda tutishlari uchun amalga oshirilayotgan ezgu sa'y-harakatlar xususida so'zlab berdi.

- *Farzandlarimiz "Odobnoma" fanini juda katta qiziqish bilan o'rganishmoqda. Shu bois axloqiy, ma'naviy tarbiya borasida muhim yo'riqnomaga aylanayotgan "Odobnoma" qo'llanmasini nashr etdik, - deydi markaz prezidenti Abdumalik Ahmedov delegatsiyamiz bilan suhbatda.*

Uchrashuv davomida XNU faoliyati taqdimoti o'tkazildi. Amerikalik yoshlar va ularning ota-onalariga universitetimiz ta'lim xizmatlari, imkoniyat va tashabbuslari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Rovan Universiteti tajribalari keng o'rganildi |28-noy.|

XNU rektori **Sherzod Mustafakulov** boshchiligidagi delegatsiyamiz Amerikaning Nyu-Jersi (**New Jersey**) shtatida joylashgan Rovan davlat universiteti (**Rowan university**)ga tashrif buyurdilar.

Tashkil topganligining *100 yilligi* keng nishonlayotgan mazkur nufuzli universitetda XNU rahbariyati va tegishli fakultetlar dekanlari, departamentlar boshliqlari, universitet qoshidagi kollejlarda direktorlari, kafedralar mudirlari o'rtasida uchrashuv va muzokaralar bo'lib o'tdi.

XNU delegatsiyasi Rowan davlat universitetiga tashrif buyurdilar



Tashrif chog'ida kampus-tur o'tkazilib, **Rowan universitetidagi** zamonaviy yechimlar, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari tezlashtirilgan kollej va kurslar faoliyatlari, ta'limdagi gibrid yondashuvlar, xorijiy talabalar uchun ta'lim dasturlari imkoniyatlari, talablari va afzalliklari bilan tanishilmoqda. Akademik maslahatlar olinib, innovatsion hamkorlik yo'lga qo'yildi.

XNU delegatsiyasi Rowan universitetining asosiy kampusi, Tibbiyot maktablari va kollejlarda talabalarga bakalavriyat, doktorlik va professional dasturlar bo'yicha berilayotgan ta'lim faoliyati bilan atroflicha tanishdilar.

Delegatsiyamiz AQSHda muhandislik ta'limi bo'yicha yetakchi bo'lgan Rowan universiteti Muhandislik kollejida bo'ldilar.

Kollejning **Biotibbiyot, Kimyo, Fuqarolik va atrof-muhit muhandisligi, Qurilish menejmenti, Elektr va kompyuter muhandisligi, Muhandislik tadbirkorligi, Muhandislik boshqaruvi va Mashinasozlik** kabi amaliy va intellektual tajribalarni taqdim etuvchi ta'lim dasturlari, eng zamonaviy ilmiy-tadqiqot va o'quv jihozlari bilan tanishdilar.

Shuningdek, Rowan universiteti shifoxonasi faoliyati bilan ham tanishishga muvaffaq bo'ldilar. 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ko'p tarmoqli, jumladan pulmonologiya, endokrinologiya va og'riqni boshqarish kabi 14 ta ixtisoslik sohalarida sog'liqni saqlash xizmatlari taqdim etib kelayotgan tibbiyot muassasasida bo'ldilar.

Universitetning Ta'lim kolleji, Fan va matematika kollejlari faoliyati ham delegatsiya a'zolari tomonidan keng o'rganildi.

XNU vakili – Xitoyda |27-noy.|

Xitoyning Shenjen (Shenzhen) shahrida "Mintaqaviy past uglerodli sanoatni chuqurlashtirish: hamkorlik va innovatsiyalar" mavzusida xalqaro forum bo'lib o'tmoqda

Unda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining Ilmiy va innovatsion faoliyatga oid dasturlarni shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i Shuhrat Otajonov va Xalqaro Nordik universiteti Akademik ishlar bo'yicha prorektori **Muhammadsiddiq Amonboyev** boshchiligidagi delegatsiya vakillari faol ishtirok etishmoqda.



Forumda hukumat, boshqaruv organlari vakillari, sohalar mas'ullari, professor, olimlar qatnashmoqdalar.

Ma'ruzalarda shaharlar kelajagi ko'rib chiqilib, yashil rivojlanish, past uglerodli va aqlli ishlab chiqarishga o'tishni tezlashtirish borasida muhim tashabbuslar ilgari surilyapti.

Forumda XNU prorektori Muhammadsiddiq Amonboyev moderatorligida karbonsiz shaharlar uchun strategiyalar va harakatlar, uglerodsiz shaharlarni rivojlantirish tajribalari ko'rib chiqilmoqda.

XNU xalqaro muloqot platformasiga aylanadi |28-yan.|



Xitoyning Shenjen (Shenzhen) shahrida o'tkazilgan "Shenjen past uglerodli shahar forumi"da XNU prorektori M. Amonboyev boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi faol ishtirok etdi.

Har tomonlama manfaatli ochiq hamkorlik, yashil va kam uglevodli, mustaqil innovatsiyalar, aqlli ishlab chiqarish mavzusiga bag'ishlangan forumda mamlakatlarning yashil rivojlanishi bo'yicha qarorlar qabul qilish choralarini puxta amalga oshirishga e'tibor qaratildi.

Xalqaro ICLEI tashkilotining dasturlar menejerlari, Xitoyning hukumat vakillari va

tadqiqot markazlari mutaxassislari tomonidan mavzuga doir taqdimotlar o'tkazildi. Shaharlar uchun zarur strategiyalar va harakatlar, innovatsion ekotizimni rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini qabul qilish va yashil qurilish amaliyoti borasida muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Shuningdek, Pekin, Shenjen, Nankin va Usi shahar tadbirkorlari hamda mutaxassislari bilan O'zbekiston delegatsiya a'zolari o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish yuzasidan kelushuvlar amalga oshirildi. Kelgusida Xalqaro Nordik universiteti olimlar, mutaxassislari va korxonalar uchun xalqaro muloqot platformasi va o'quv bazasi vazifasini o'taydi.

XNU delegatsiyasi Rowan universiteti muzeyida bo'ldi |3-dek.|



Hollybush Mansion tarixiy ahamiyatga molik uchrashuv joyidir. 1967-yilning iyun oyida bu joy Amerika Qo'shma Shtatlari va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi sovuq urush tarangligini biroz yumshatish uchun zamin yaratgan.

Ya'ni, Prezident **Lindon Beyn Jonson** va Sovet hukumati Bosh vaziri **Aleksey Nikolayevich Kosigin** aynan Hollybush kutubxonasida uchrashganlar. Muzokaralar muvaffaqiyatli o'tgan va Jonson ikki mamlakat o'rtasidagi mojarolarning yumshatilishi va kelajakda munosabatlar yaxshilanishini ma'lum qilgan.

Delegatsiyamiz muzeyda shu va shu kabi muhim tarixiy, qiziqarli ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldilar, eksponatlar bilan tanishdilar.

XNU delegatsiyasi Amerikaning Nyu-York shahrida joylashgan BMT bosh qarorgohida bo'ldilar |4-dek.|

BMTga a'zo mamlakatlar bayroqlari qadalgan **39 qavatli muhtasham** binoda rasmiylar, diplomatik vakolatxonalar ofislari, xavfsizlik kengashi majlislari o'tkaziladigan konferensiyalar zali, majmua kutubxonasi va sayyohlik markazida bo'ldilar.

Ma'lumot o'rnida, **BMT bosh binosi 1952-yilda** bunyod etilgan. Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan bu xalqaro tashkilotga O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgach, **1992-yil 2-martda** a'zo bo'lgan.



Finlandiyalik hamkor ish beruvchilar – XNUda |3-dek|



Universitetimizga Finlandiyadan **"Mäkelän Mansikka" OY** asoschilari **Jaana Tolvanen** va **Antti Tolvanen** tashrif buyurdilar.

Finlandiyalik mehmonlar uchun kampus-tur o'tkazilib, ta'lim tizimi, akademik muhit va talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildilar.

Mehmonlar bilan universitetdagi uchrashuv, ayniqsa "Work and travel" dasturi asosida Finlandiyada ish va savohatda bo'lib qaytgan talabalarimizga katta xursandchilik bag'ishladi.

Talabalarimiz fin ish beruvchilariga poytaxtimizning diqqatga sazovor joylarini tanishtirdilar.

Ma'lumot o'rnida, Jaana Tolvanen va Antti Tolvanen Finlandiyaning Sarvisalo oroli, Pyhäjärvi munisipaliteti, Kesälahti qal'asida joylashgan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga tayangan holda faoliyat yurituvchi "Mäkelän Mansikka" OY fermer xo'jaligi asoschilaridir.

XNUNing 30 nafardan ortiq talabalari o'tgan yozgi ta'tilda "Work and travel" dasturi asosida Finlandiyadagi ushbu fermer xo'jalikda faoliyat yuritdilar va fin mutaxassislari ko'magida daromadga ega bo'ldilar.

Talabalarimiz Finlandiyada ish beruvchilarga O'zbekiston haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar taqdim etishgan, milliy taomlarimizni tayyorlab berishgan. Ularda bizning yurtimiz, urf-odat va qadriyatlarimiz, tariximizga qiziqish uyg'otishgan edi.

Finlandiyalik hamkor ish beruvchilar yurtimiz, xususan XNUGa o'zlarining ilk tashriflarini amalga oshirdilar va ulkan taassurotlarga ega bo'ldilar.

XNUda "Dolzarb - 40 kunlik" profilaktik tadbirlar doirasida davra suhbatlari o'tkazildi |6-dek|

Toshkent shahar IIBB ATSJKKB XPB bilan hamkorlikda talabalar o'rtasida profilaktik tadbir tashkil etildi.

Davra suhbatida inspektorlar tomonidan talabalarning kibexavfsizlik borasidagi huquqiy savodxonligi oshirildi.

Mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olish uchun plastik kartalarning maxfiy kodlarini hech kimga bermaslik, karta ma'lumotlari so'ralgan namunalarga bunday ma'lumotni joylamaslik, internet tarmog'ida tarqatilyotgan turli havolalarga kirmaslik borasida talabalar ogohlīgi kuchaytirildi.



XNUda "Zo'ravonlikka qarshi 16 kun" aksiyasi doirasida davra suhbatlari o'tkazildi |6-dek.|

"Biz zo'ravonlikka qarshimiz" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi va huquq-tartibot idoralari hamkorligida "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" mavzusida o'tkazilgan ochiq muloqotda professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etdilar.

Davra suhbatida mutaxassislar tomonidan jamiyatda va oilalarda kuzatilayotgan maishiy yoki "uy zo'ravonligi" kabi muammolar tahlil etildi. Bunday vaziyatda qolgan bolalar va xotin-qizlar xavfsizligi himoyasi, jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonuniy chora-tadbirlar to'g'risida talabalar xabardorligi oshirildi.

Konstitutsiyamiz 31 yoshda! |6-dek.|

Yangi tahrirdagi bosh qomusimiz xalq takliflari asosida shakllantirildi va unda barcha aholi qatlamlarining manfaatlarini inobatga olindi. Inson va uning qadr-qimmati eng oliy qadriyat sifatida mustahkamlab qo'yildi.

Bugun Xalqaro Nordik universitetida **"Konstitutsiya baxtimiz-qomusi"** mavzusida bayram tadbiri o'tkazildi. Unda yuridik fanlari doktori, professorlar tomonidan Bosh qomusimiz tarixi, yangi tahrirda yanada sayqal topgani va farovon hayotimizdagi yuksak ahamiyati ochib berildi.



Tadbirning badiiy qismida **"Nordik taronalari"** xalq cholg'u ansambli ijrosida kuy-qo'shiqlar tinglandi. Professor-o'qituvchilar va talabalarga anjuman davomida vatanparvarlik hislari va yuqori kayfiyat hamroh bo'ldi.

Bayram fayzli davrada, esda qolarli nishonlandi.

XNUda birinchi xalqaro "Matematiklar forumi" o'tkazildi |11-dek.|

Xalqaro Nordik universitetida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, **IDC** (Intelligence Development Center), **Rowan University** (AQSH), **Eduten** (Finlyandiya) va ixtisoslashgan maktablar hamkorligida ilk **"Matematiklar forumi"** o'tkazildi.

Forumda amerikalik va finlyandiyalik matematik-olimlar, respublikamiz matematiklari, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar, o'quv markazlari ustozlari ishtirok etdilar.



"Bugungi kunda raqamli islohotlarni jadallashtirish uchun zarur bo'lgan vazifalar yoshlarni aniq fanlarga, innovatorlik g'oyalari yaratishga qiziqishlarini yanada oshirish, kelajakda yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarish, qolaversa, O'zbekistonni xalqaro hamjamiyat orasida, xususan, ilm-fan olamida o'ziga xos nufuzini oshirishga xizmat qiladigan iqtidorli yoshlar safini kengaytirishdir."

Yoshlarga quyi sinflardan o'qov darsdan tashqari vaqtlarda xalqaro olimpiadalar metodologiyasini o'rgatish va sinovlarga ruhan tayyorlash, matematika fanidan ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish, o'quvchilarni matematikaga qiziqtirishda xorijiy, xususan Finlyandiya va amerika tajribalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir."

"XNUda o'tkazilayotgan "Matematiklar forumi" BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un tarzda ta'lim sohasidagi islohotlarga hissa qo'shish, "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan yangi maqsad va rejalarni amalga oshirishda pedagoglar hamjihatligini ta'minlash maqsadlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Forum ishi respublikamiz matematiklari uchun nafaqat o'zaro tajriba almashish maydoni, balki xalqaro ilg'or pedagogik amaliyot bilan ham tanishish imkonini beradi."



"Eduten Finlandiya ta'limini o'yin va sun'iy intellekt bilan birlashtirgan ta'lim platformasidir. Eduten barcha sinflar o'quvchilariga matematikani raqamli o'rgatishga mo'ljallangan.

Platformaning tayyor haftalik o'quv dasturi o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beruvchi yuzlab yuqori sifatli mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Edutenning muhim xususiyati, undan butun dunyo bo'ylab har bir maktabda ta'lim jarayonida foydalanish mumkin.

Bugungi forum ishtirokchilari - matematiklarga o'z o'quvchilarini bu fanga yanada ko'proq qiziqtirishda platformamiz imkoniyatlarini sinab ko'rishlarini tavsiya etamiz. "

"XNUda o'tkazilayotgan "Matematiklar forumi" BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un tarzda ta'lim sohasidagi islohotlarga hissa qo'shish, "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan yangi maqsad va rejalarni amalga oshirishda pedagoglar hamjihatligini ta'minlash maqsadlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Forum ishi respublikamiz matematiklari uchun nafaqat o'zaro tajriba almashish maydoni, balki xalqaro ilg'or pedagogik amaliyot bilan ham tanishish imkonini beradi."





“Rovan universitetida Xalqaro Nordik Universiteti delegatsiyasi bilan juda mazmunli muzokara o‘tkazdik. O‘zaro hamkorlikning turli istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha kelishib oldik.

Umid qilamizki, ta‘lim va tadqiqotlar sohasida yaqin hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yamiz va tez orada XNU talabalarini universitetimizda o‘qitilayotgan axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalari, kiber xavfsizlik, geografiya, bioinjeneriya va yana ko‘plab boshqa mutaxassisliklarda ta‘lim olishlarini kutib qolamiz.

O‘zaro muzokaralarimizdan mamnunmiz va hamkorlik qilishga tayyorligimizni bildiramiz.”

Forumda so‘z olganlar matematika ko‘p fanlarga yo‘l ochishi, pedagoglarning mahoratini oshirish orqali yoshlarning aniq fanlarga qiziqishlarini yanada kuchaytirish jozligini e‘tirof etdilar, matematika fanini o‘qitishning ilg‘or tizimiga o‘tish, tayyorlov kurslari va maktabgacha ta‘lim hamda xalq ta‘limi hamkorligini mustahkamlash xususida so‘zladilar.

Forumda ishtirokchilarga xorijiy ma‘ruzachilar tomonidan zamonaviy matematika fanining rivojlanish tendensiyalari yetkazildi.

Matematiklar forumida IDC kitoblari mualliflaridan Baxtiyor Ro‘ziyev va boshqa tajribali o‘qituvchilar tomonidan qiziqarli va samarali taqdimotlar amalga oshirildi.

Respublikada foliyat olib borayotgan tayyorlov kurslari matematika o‘qituvchilari uchun yaratilayotgan zarur qo‘llanmalar borasida keng ma‘lumotlar berildi.



Forum doirasida respublikada foliyat olib borayotgan tayyorlov kurslari matematika o‘qituvchilari orasida hamkorlikni kuchaytirish, o‘zaro ilmiy-metodologik ma‘lumotlar almashishlariga ko‘maklashish, yagona standart asosida dars o‘tishlarini ta‘minlash, ularni yangi zamonaviy normativ-metodik qo‘llanmalar bilan tanishtirishga e‘tibor qaratildi.

Forumda muhokamalar o‘tkazilib, matematika o‘qituvchilari uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ilg‘or metod va tajribalarni ommalashtirishga qaratilgan jurnal tashkil etish, o‘qituvchilarning yagona bazasini shakllantirish va matematika fanidan o‘quvchilar o‘rtasida olimpiadalar tashkil etish mexanizmini ishlab chiqishga kelishildi.

Yuqori saviyada o‘tgan forum yakunida faol ishtirokchilar Sertifikatlar bilan taqdirlandilar.



Nufuzli fin universiteti rektori - Foundation tinglovchilari huzurida |13-dek.|

Eng xavfsiz va baxtlilar mamlakati, innovatsiyalar bilan qurshalgan, sof tabiatli shaharlar, ilg'or universitetda o'qish va uning bir qismiga aylanish, eng ideal tanlovni qanday amalga oshirish mumkin?

Finlandiyaning Karelia universiteti rektori **Petri Raivo** boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan **JIDU Foundation maktabi** tinglovchilari o'rtasida o'tgan uchrashuvda shular xususida so'z bordi.

Mehmon ma'ruzachilar o'quvchilarga **Karelia AFUda** ta'lim olish, o'qitish usullari kombinatsiyalari, xalqaro talabalar uchun imkoniyatlar, qo'shma dasturlar, o'quv yili davomida talabalar almashinuvi va nima uchun aynan Shimoliy Kareliyada ta'lim olishni tanlash kerakligi xususida qiziqarli taqdimotlar qildilar.

Samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda tinglovchi-yoshlar o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga fin ta'lim ekspertlaridan javoblar oldilar.

Ma'lumot o'rnida, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik litseyida XNU Foundation dasturi bo'yicha ta'lim berilmoqda. Ta'lim jarayonlari Kareliya universiteti bilan hamkorlikda fin ta'lim modellari asosida tashkil etilmoqda.

KARELIYA UNIVERSITETI REKTORI FOUNDATION TINGLOVCHILARI HUZURIDA



Xalqaro hamkorlikning keyingi qadamlari |27-fev|

UN NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY XALQARO MEMORANDUM Karelia UNIVERSITY OF APPLIED SCIENCES



Finlandiyadagi strategik hamkorimiz Karelia AFU bilan qo'shimcha hamkorlik yo'nalishlari belgilandi.

Ayni paytda Karelia universiteti rektori **Petri Raivo** va Xalqaro bo'lim boshlig'i **Liisa Timonen** universitetimizda ta'lim tashrifi bilan bo'lib turibdi.

Ushbu hamkor fin universiteti bilan talabalar amaliyoti, loyiha ishlariga ilmiy rahbarlik, fin kompaniya va muassasalarida ishlash, kutubxona hamda ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish kabi qo'shimcha hamkorlik yo'nalishlari belgilandi.

Shuningdek, qo'shma dasturlar, startaplar, **Erasmus+** va boshqa ilmiy loyihalarda ishtirok etish hamda xalqaro olimpiadalar tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha bitimlar imzolandi.

XNUda "Coffee time"! |14-dek.|



Eng yirik kutubxonaga tashrif uyushtirildi |14-dek.|

Bu kutubxonada tarixiy, xalqaro va zamonaviy asarlarni to'la o'rganish imkoni mavjud. U nodir nashrlar fondi va yirik elektron bazaga ega.

Bugun talabalarimiz uchun respublikamizdagi ana shu yirik bilim maskani - Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga tashrif uyushtirildi.

Talabalarimiz ziyo maskani bilan tanishib, a'zolik guvohnomasiga ega bo'ldilar.



XNU mustaqil izlanuvchilarining ilmiy faoliyati monitoring qilindi |15-dek.|



Xalqaro Nordik universitetida ilmiy izlanish olib borayotgan mustaqil izlanuvchilarning faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha monitoring o'tkazildi.

Monitoring doirasida tadqiqotchilarning o'z ish rejaları asosida yil davomida amalga oshirgan ishlari ko'rib chiqildi.

Jumladan, ish reja va metodologik dasturlari, kurslardagi ishtiroki va sifat sertifikatlari, dissertatsiya ishlarining bajarilishi, OAK ro'yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallar hamda Scopus tizimining davriy nashrlarida chop etilgan maqolalari kabi tegishli mezonlar bo'yicha hisobotlari tinglandi va baholandi.

Tajribali olimlar va mutaxassislardan iborat monitoring komissiyasi a'zolari tomonidan tadqiqotchilarga dissertatsiya ishini sifatli bajarish, shaxsiy ish rejalarini samarali amalga oshirish yuzasidan yo'nalish va maslahatlar berildi.



XNUga Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasi Diplomatik munosabatlar departamenti boshlig'i Alexander Scharer tashrif buyurdi |15-dek.|

Xalqaro Nordik universitetida janob **Alexander Scharer** va universitet Boshqaruv kengashi raisi **Alisher Jo'rayev** o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Shveysariyadagi ta'lim tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari, jumladan turizm sohasida faoliyat yurituvchi universitetlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarida so'z bordi. Talabalar uchun Shveysariyada turli stajirovkalar, **"Work and travel"** dasturlarini tashkillash xususida fikr almashildi.



AQSh elchixonasining Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi tarkibidagi AMERIKA MARKAZIGA tashrif uyushtirildi

TALABALARIMIZ AQSH ELCHIXONASI QOSHIDAGI AMERIKA MARKAZIDA



Tashrif mobaynida XNUning bir guruh talabalari va xodimlari o'quv-ko'rgazmali mashg'ulotda Amerika markazi resurslari va xizmatlari bilan tanishdilar.

AQSh-O'zbekiston munosabatlari, Amerikada ta'lim olish, ushbu davlat madaniyati va jamiyati haqidagi keng ma'lumotlar olindi. Talabalarimiz markazning elektron ma'lumotlar bazasiga obuna bo'ldilar, kutubxona va ingliz tili klubi a'zolariga aylandilar.

Endilikda talabalarimiz respublikamizda faoliyat yuritayotgan Amerika markazlarida va AQSh elchixonasida ingliz tilini o'qitish va rivojlantirish bo'yicha tashkil etiladigan turli tadbirlar, anjuman va ma'ruzalarda qatnashish imkoniyatiga egalar.

"Nurli maskan"da bayram kechasi tashkillandi |15-dek.|

XNUning Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi talabalari 77-"Nurli maskan" maktab-internatiga Yangi yil bayrami shukuhini olib kirdilar.

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari, shashka va paralimpiya bo'yicha jahon chempionati oltin medali sohiblari tarbiyalanayotgan maktabga

XNU rahbariyati tomonidan hozirlangan sovg'alar jamlanmasi topshirildi.

Talabalarimiz maktab-internat o'qituvchilari bilan birgalikda **"Ilm maskani"** mavzusida ko'rgazmali dars o'tkazdilar. Bolajonlarga atalgan bayram kechasi uyushtirib, musiqiy chiqishlar namoyish etdilar.

"MEHR ULASHAMIZ!" AKSIYASI DOIRASIDA UCHRASHUV O'TKAZILDI



AQShning Toshkentdagi elchixonasida muhim uchrashuv o'tkazildi |20-dek.|

Xalqaro Nordik universiteti boshqaruv kengashi raisi **Alisher Jo'rayev** Amerika Qo'shma Shtatlarining Toshkentdagi elchixonasida AQShning O'zbekistondagi elchisining Madaniyat va ta'lim bo'yicha maslahatchisi **Sarah Talalay** xonim bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv davomida Xalqaro Nordik universiteti va Amerikadagi universitetlar o'rtasida hamkorlikni yanada kengaytirish, turli qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish, ta'lim va madaniyat sohasida potensial loyihalarni amalga oshirish bo'yicha suhbat qurildi.

Uchrashuvda Sarah Talalay xonim bilan XNU va Nyu-Jersi shtatida joylashgan Rovan universiteti o'rtasidagi hamkorlik xususida ham fikr almashildi.



Rektor talabalar bilan ochiq muloqotda bo'ldi |21-dek.|



Xalqaro Nordik universitetida "**Yoshlar forumi**" doirasida universitet rektori, professor Sherzod Mustafakulov va talabalar o'rtasida ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda rektor talabalarni joriy o'quv yilida yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilgan ishlar, xalqaro ta'lim tashriflari, xususan AQSh safari davomida erishilgan muhim kelishuvlar mohiyati bilan keng tanishtirdi. Yangi o'quv yilida amalga oshiriladigan **Erasmus+**, talabalar almashish, "**Work and travel**" va boshqa qo'shma dasturlarda barcha talabalarni faol ishtirok etishga chorladi. Amerikalik, finlandiyalik talaba-yoshlar hayoti misolida ilmiy salohiyatni oshirib borish yo'llariga to'xtaldi.



Ochiq muloqotda har bir talaba o'zining bir yillik faoliyatini sarhisob qilish, kelgusi yil uchun niyat, maqsad, harakat va mehnat qilish rejalarini puxta tuzib olishga undaldi.

Talabalar rektorning oliy ta'lim imkoniyatlari, raqobatbardosh kadrlarga qo'yiladigan talablar, ayniqsa muvaffaqiyatga erishishning 10 qoidasi xususidagi yo'nalish va tavsiyalarini katta qiziqish bilan tingladilar.

Ochiq muloqotda talabalar bilan fikr almashildi, muammolari o'rganildi va zarur yo'l-yo'riqlar berib o'tildi.



Talabalarimizning ilk hisobot-konsert dasturi yuqori saviyada o'tdi |21-dek.|

"Maqom san'atini rivojlantirish, uni qorong'ulikdan yorug'likka olib chiqish yo'lida jonbozlik ko'rsatayotgan san'atkorlarimizga har qancha rahmat aytsak, arziydi".

Shavkat Mirziyoyev

XNUNing Musiqa kafedrasida maqom, katta ashulalar, o'zbek milliy musiqiy merosi namunalari bo'yicha an'analarni davom ettiradigan o'ziga xos mahorat maktabi yaratildi. O'zbek xalq cholg'ulari ansambli tuzilib, sozanda va qo'shiqchi-talabalarning ijro mahoratlari sayqallab borilyapti.

Bugun Musiqa ta'limi yo'nalishi ijodkor talabaları o'zlarining ilk hisobot-konsert dasturlarini taqdim etdilar. 10 dan ziyod turdagi cholg'u asboblari sozandalari Musiqa kafedrası mudiri Qurbonniyoz Panjiyev va katta o'qituvchi Ilyosbek Ro'zimurodov badiiy rahbarligida o'zbek mumtoz va Yevropa musiqalarini mahorat bilan ijro etdilar.



Xalqaro Nordik universiteti - Yilning eng yaxshi ilmiy muassasasi! |21-dek.|



"Turkiston" san'at saroyida "Olimlar bayrami" bo'lib o'tdi. Bayramda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vakillari, OTMLar rektorlari, ilmiy tadqiqot institutlari direktorlari, akademiklar, professorlar, olimlar, xorijlik mehmonlar va yosh tadqiqotchilar ishtirok etdilar.

Anjumanda **"Yil olimlari"**ni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. "Science and innovation" xalqaro ilmiy jurnali tomonidan o'tkazilgan tanlov g'oliblari e'lon qilindi.

Xalqaro Nordik universiteti nomi **"Yilning eng yaxshi ilmiy muassasasi"** nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb e'tirof etilib, rektor Sherzod Mustafakulovga statuetka topshirildi va tabriklandi.

Ajmunanda katta konsert dasturi namoyish etildi. Bayram yurtimiz olimlarini bir manzilga jamladi.

XNUda seminar-trening haftaligi o'tkazildi |25-dek.|

"Universitetning xalqarolashuvini ta'minlash va ta'lim sifatini yanada oshirishda professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini rivojlantirishning zamonaviy usullari" mavzusida seminar-trening haftaligi o'tkazildi.

Bu muhim haftalikda treninglar orqali rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilarning ta'lim sifatini oshirishda kasbiy mahoratlarini yanada yuksaltirish maqsad qilingan.

Trening ishtirokchilariga akademik, ilmiy tadqiqot va xalqarolashuv sohalarida yuz berayotgan so'nggi o'zgarishlar, trendlar xususida yangi ma'lumotlar yetkazildi.



"Malaka oshirish bo'yicha tashkil etilgan treningdan kutilayotgan natijalar: kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilar oldida turgan vazifalar"

"Yangi 2024-yilda professor-o'qituvchilar uchun nufuzli milliy va xalqaro universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlarida malaka oshirish hamda stajirovka o'tash tizimli tashkil etib boriladi."

Kelgusida elektron o'quv jarayoniga o'tish, yangi kitoblarni yaratish, videoma'ruzalar yozish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini oshirish, ilmiy maqolalar chop etishga ahamiyat qaratamiz."

Shuningdek, grantlar, loyihalarda ishtirok etish, xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik ko'rish, ishlarni xalqaro reytinglar talablariga mos tashkil etish, google scholar tizimidan samarali foydalanish, rasmiy veb sahifa va ijtimoiy tarmoqlar faollashuvini yanada kuchaytirish kabi qator vazifalar oldimizda turibdi."

Innovatsion pedagogik yondashuvlar borasida master-klass o'tkazildi



Bugungi treningda professor-o'qituvchilar tomonidan master-klasslar o'tkazildi. XNU kafedralarining ilmiy-akademik imkoniyatlari va professor-o'qituvchilarning professionalizmi namoyish etildi.

Ustozlar fan doirasidagi innovatsiyalarga oid videoroliklar, o'quv loyihalari, dars ishlanmalaridan namunalar va fotolavhalar asosida mahorat darslari o'tkazib, o'zaro tajriba almashdilar.

Ijro va mehnat intizomi - ustuvor jihat

Treningda Moliya ishlari bo'yicha prorektor **Nuriddin Murodullayev** hamda HR va xodimlar malakasini oshirish departamenti boshlig'i **Baxtigul Tolipova** tomonidan jamoadagi ijro va mehnat intizomi masalalariga e'tibor qaratildi.

XNU strukturasi, mehnat qonunchiligi bo'yicha ustuvor jihatlar, intizomning hayot va mehnatdagi ahamiyati, intizomli tafakkurni tarbiyalash va shaxsiy ibrat ko'rsatish borasida ma'ruzalar qilindi.



Yangi O'zbekistonni korrupsiyadan holi mamlakatga aylantirishda - birlashaylik!

XNUda o'tkazilayotgan treninglar doirasi **O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi professori, polkovnik Sharif Qobilovning** ushbu dolzarb mavzudagi ma'ruzasi tinglandi.

Ma'ruzada korrupsiyaning davlat va jamiyat hayotiga ta'siri, ushbu illatni "**oziqlantiruvchi**" omillar, mamlakatimizda va jahonda bu illatga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida so'z bordi.

Korrupsiya - iqtisodiy va ijtimoiy muammolar manbai. Korrupsiya shaxsiy maqsadda foyda olish uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir.



Mamlakatimizda "**Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**"gi qonunning qabul qilinishi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etilgani, davlat dasturlari asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sharif Qobilov universitetimizga yilning eng yaxshi o'quv qo'llanmalari qatoridan o'rin olgan qo'llanmasi, "**Harakatlar strategiyasi: xavfsizlik va farovonlik modeli**" va boshqa nomdagi kitoblarini sovg'a qildi.

Treningda ishtirokchilarga mavzu doirasida keng ma'lumotlar berildi.

XNUda tayyorlangan monografiya xorijiy tillarda nashr etilmoqda |26 - dek.|



Oziq-ovqat sanoatida qanday muammo va imkoniyatlar mavjud? Bu sanoatni nima uchun modernizatsiya qilish kerak?

XNUning Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasini mudiri (PhD) **Xasan Sabirovning** "Future prospects of the food industry in the republic of Uzbekistan" nomli monografiyasidan ushbu dolzarb savollarga javob olish mumkin.

O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar oziq-ovqat sanoatining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari bag'ishlangan kitobda sohadagi muammolar keng tahlil qilingan ularni ifodalovchi trend tenglamalar ishlab chiqilgan. Monografiya orqali 5 yillik prognozlar tahlili asosida tayyorlangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar bilan tanishish mumkin.

XNUGa O'zbekiston davlat Jahon tillari universitetining Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori, professor Abdurahim Nosirov boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi |26 - dek.|

XNU rahbariyati bilan ikki universitet o'rtasida fin va shved tillari filologiyasi yo'nalishlarida qo'shma bakalvriat dasturlarini tashkil etish borasida muzokara olib borildi.

Yanvar oyida amalga oshiriladigan har ikki universitet vakillaridan iborat ta'lim delegatsiyasining Finlandiya va Shvetsiyaga tashrifi oldidan safar rejalari tuzib olindi.



Ajoyib sovg'alar uchun rahmat - Nordik! |27 - dek.|



Nordik oilasida hayajonli, quvonchli lahzalar davom etmoqda. "Nordik sekret" sirli sovg'alari barcha-barchaga ajoyib kayfiyat ulashdi. Yangi yil bayramiga bag'ishlangan navbatdagi anjuman hamkasblar birdamligi, do'stligi ifodasi bo'ldi. Bir-biridan sir tutilgan holda hozirlangan sovg'alar o'z egalarini topdi! O'z ismi yozilgan sirli sovg'alarni ochish beg'ubor bolalik damlarini ham yodga solib yubordi!

Tobora yaqinlashib kelayotgan bayram va ajoyib sovg'alar barchaga muborak bo'lsin!

Universitet kengashining 4-son yig'ilihi o'tkazildi |27 - dek. |

UNIVERSITET KENGASHINING 4-SON YIG'ILISHI O'TKAZILDI



Kengash yig'ilishida dastlab "Masofaviy ta'limni rivojlantirish: uning o'quv-uslubiy, normativ-huquqiy hujjatlarini tayyorlash, barcha komponentlar bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish to'g'risida"gi masala yuzasidan mas'ullarning hisobotlari tinglandi.

Kun tartibidagi "Universitetning xalqaro reytinglarda ishtirok etishini ta'minlash, ilmiy maydonda nufuzini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish to'g'risida" va "Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, uni rasmiylashtirish, himoya jarayonlarini tashkil etish hamda magistratura talabalariga istisno tariqasida ilmiy rahbarlarni birlashtirish to'g'risida"gi masalalar ko'rib chiqildi va muhokama qilindi. Kengash yig'ilishida professor-o'qituvchilar uchun treninglar tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, darslar tahlilini amalga oshirish kabi muhim masalalar ham ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

XNUda Milliy kutubxona imkoniyatlaridan keng foydalaniladi |28 - dek. |

Ilmiy izlanishlarda sifatli va ishonchli axborot resurslaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi treningda qator xalqaro ilmiy-texnik bazalarning o'ziga xosliklari va imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Treningga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi Xalqaro aloqalarni tashkil etish xizmati bosh mutaxassisi **Husniya Boysunova** taklif etilib, milliy kutubxona imkoniyati, ma'lumotlarni izlash va tadqiqotlarni takomillashtirish yo'llari xususida boy ma'lumotlar olindi.



"Nordik" ilmiy-amaliy elektron jurnalining taqdimoti o'tkazildi |28 - dek. |



XNU prorektori Odil Qo'ysinovning ilmiy-texnik bazalar tarkibiga kirgan jurnallarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar xususidagi ma'ruzasi tinglandi.

Shuningdek, doktorantlar, tadqiqotchilar, olimlar va soha mutaxassislarining ilmiy salohiyatini sayqallash, turli fan sohalarida olib borilayotgan dolzarb ilmiy izlanishlar natijalarini ommalashtirish maqsadlarida ta'xis etilgan "Nordik" ilmiy-amaliy elektron jurnali taqdimot qilindi.

O'quv yili davomida faollikda ibrat namunasini ko'rsatgan bir guruh ustozlarga Tashakkurnomalar taqdim etildi.

XNU olimlarining maqolasi nashr etildi



"Xalq so'zi" gazetasida universitetimiz olimlari **Sherzod Mustafakulov** va **Qobiljon Isayevlar**ning dunyo inqirozlari turkumidagi maqolasi nashr etildi.

Fransiya iqtisodiy inqirozlarni yengib o'tgan dunyodagi beshinchi yirik iqtisodiyotdir. **"Iqtisodiy tanazzulga nima sabab bo'ldi?"** sarlavhali maqolada mamlakatdagi iqtisodiy inqiroz sabablari, oqibat va yechimlari bilan tanishish mumkin.

XNU olimlari - taniqli olimlar ensiklopediyasiga kiritildi

O'zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi 2023-yil to'plamida yurtimiz yetakchi olimlarining ilmiy faoliyatlari va yutuqlari eks etgan biografiyalari jamlandi. Mazkur ensiklopediya sahifalaridan Xalqaro Nordik universiteti olimlari ham o'rin oldilar.

Xususan, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, professor **Qo'ysinov Odil Almurotovich** va Musiqa ta'limi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor **Panjiyev Qurboniyoz Berdiyevichning** hayot va ilmiy faoliyat yo'llari yoritildi.

Ensiklopediyada olimlarimizning samarali faoliyati, salmoqli ilmiy yutuqlari, ularning respublikamiz ta'lim tizimi rivojiga qo'shayotgan hissalarini o'z ifodasini topdi.

Olimlarning biografiyalari taniqliolimlar.uz platformasi va wikipedia.org onlayn ochiq ensiklopediyasiga ham joylashtirildi.





Xalqaro Nordik universiteti missiyasi – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashtirish sharoitida ta'lim eksportini oshirishdan iborat!



@nordic_edu



www.nordicuniversity.org